

Rustamova Nargiza Komilovna

Atajonova Maxsuma Abdujabborovna

*Farg'ona tumani 19-sonli umumta'lim maktabi
bosholang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz darslarni olib borishdagi eng yaxshi usullardan biri "Aqliy hujum" metodi haqida batafsil bayon etilgan. Bu metodning muhim jihatlari shundaki o'quvchini o'z ustida ishlashiga ta'sir ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: muammo, nostandard fikrlash, g'oya, mulohaza, Breystorming.

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to'g'ri va ijobjiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijobjiy va nostandard fikrlashga o'rnatadi.

«Aqliy hujum» usulini qo'llashda o'qituvchi guruh ishtirokchilarini to'playdi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirishni so'raydi. Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarning g'oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish, kengaytirish, qayta o'zgartirish mumkin. G'oyalar yozilgan varaqlar devorga osib qo'yiladi. Berilgan g'oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan echimni tinglash uchun muhokama o'tkaziladi.

Bu haqiqatdan ham o'quvchilarning ta'lif jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalari bayon etish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'barlantiruvchi mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga jalb qiladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib, keyin esa o'quv faoligi 5-10 daqiqa oralig'ida vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin. Masalan, qandaydir mavzuni yoki muammoni muhokama qilish orqali hal qilish uchun savol qo'yish.

«...bahslashuvchilarning bir-biriga nisbatdan fazoviy joylashuvlariga bog'liq», ya'ni an'anaviy dars o'tkazish shaklida tinglovchilarning bir-birlarining yuzlarni ko'rish imkoniyati cheklangan bo'ladi, bunday hol esa tinglovchilarning ruhiy tayyorgarligiga putur yetkazishi mumkin, aksincha doira shakldagi stol atrofida joylashib, o'rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr bildira oladigan tinglovchilarda bahs-munozara o'tkazish uchun psixologik tayyorgarlik kuzatiladi.

Shuni e'tirof etish joizki "brein storming" (inglizcha «aqliy hujum») uslubi amerikalik olim A.Osborn tomonidan 1930 yilda taklif etilgan bo'lib, unda loyihalarni rejalshtirish va uning natijalarni oldindan bashorat qilish kuzda tutilgan edi.

«Breynstorming» uslubining psixologik mohiyati shundaki, munozaraga kirilganda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr kelsa, uni tanqidsiz, erkin aytish imkoniyati beriladi. Oxirida esa bahslashuvchilar ma'lum rasional «mag'z»ni ajratib olishadi.

Dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg'ulotni boshlashi kerak. Masalan, keyingi paytlarda keng ko'lamda qo'llanilayotgan munozara yuritishning «breynstorming» shaklini olib qaraydigan bo'lsak, bunda bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2000.
2. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
3. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. Scientific progress, 3(4), 738-740.
4. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.